KRIPTOVALYUTA BOZORI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA TARTIBGA SOLISH USULLARI

Raximov Abdulaxad Nematovich
(Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali katta o’qituvchisi),
Abdimuminov Durbek Eshmirza o‘g‘li
(Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali RI-122-guruh talabasi)

Annotatsiya

Maqolada Samarqand viloyatdagi kriptovalyutalar bozorining holati, tendensiyalari va uni rivojlantirish talqin etilgan. Respublikada kriptovalyutalarning roli, raqamli iqtisodiyotda qilinayotga yangiliklar, kriptovalyutalar qo‘llashni meyoriy hujjatlar asosida amalga oshirish usullari talqin etilgan. Shuningdek, kriptovalyutalar aylanmasi, uning xususiyatlari, tartibga solish bo’yicha xalqaro hujjatlar o‘rganilgan.

Аннотация

В статье анализируется состояние, тенденции и развитие рынка криптовалют в Самаркандской области. Рассмотрена роль криптовалют в республике, инновации в цифровой экономике, методы применения криптовалют на основе нормативных документов. Также изучены международные документы по обороту криптовалют, его особенностям и регулированию.

Annotation

The article analyzes the state, trends, and development of the cryptocurrency market in the Samarkand region. The role of cryptocurrencies in the republic,

innovations in the digital economy, and methods for implementing the use of cryptocurrencies based on regulatory documents are interpreted. Also, international documents on the circulation of cryptocurrencies, its characteristics, and regulation were studied.

Kalit so'zlar: kriptovalyuta, kriptovalyuta bozori, blokcheyn, blokcheyn texnologiyasi, tranzaksiya, tranzaksiya tezligi.

Ключевые слова: криптовалюта, криптовалютный рынок, блокчейн, технология блокчейн, транзакция, скорость транзакции.

Keywords: cryptocurrency, cryptocurrency market, blockchain, blockchain technology, transaction, transaction speed.

Kirish

Ko‘pchilik elektron pullarni kriptovalyuta bilan adashtiradi. Aslida, bu so‘mning ekvivalenti bo‘lib, uning aylanishi faqat elektron tizimda amalga oshiriladi.

Raqamli (elektron) pullar – bu naqd pulning komp'yuter vositalarida aks etadigan axborot-timsoliy ekvivalenti. Ko‘plab manbalarda elektron pullarga Markaziy bankning raqamli valyutasi, onlayn hamyonlardagi pul kabi to‘lov vositasi sifatida qaraladi.

Aniq tushunib olish kerakki, ko‘plab mamlakatlar, shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, elektron pul deganda, emitentning elektron shaklda saqlanadigan (pul vositalarining hisobi tegishli bankda ochilgan maxsus hisobda yuritiladi) va to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan, so‘zsiz va qaytarib bo‘lmaydigan pul majburiyatlari tushuniladi.

Boshqacharoq qilib aytganda, bu bank majburiyatida bo‘lgan elektron hamyonlardagi valyutadir. Xavf darajasini kamaytirish (asosan, raqamli pullar bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish bilan bog‘liq) maqsadida, emitent bo‘lishga faqatgina banklarga ruxsat beriladi1.

Kriptovalyuta raqamli va virtual shakldagi har qanday turdagi valyutadir. Kriptovalyutadagi operatsiyalarni himoya qilish uchun shifrlash, ya’ni kriptografiya qo’llaniladi. Kriptovalyutalarni himoya qilish va chiqarish uchun hech qanday markaziy hokimiyat mavjud emas. Tranzaksiyalarni qayd etish va yangi birliklarni chiqarish uchun markazlashmagan tizim qo’llaniladi.

Kriptovalyuta- bu har kimga, istalgan joyda to’lovlarni jo’natish va qabul qilish imkonini beruvchi tizimdir. Kriptovalyutalar raqamli hamyonlarda saqlanadi. Dunyodagi birinchi yaratilgan kriptovalyuta bugungi kunda ham juda mashhur hisoblangan bitcoin hisoblanadi va u 2009-yilda yaratilgan. Kriptovalyuta bilan ishlashning qiziq tomoni shundaki, u foydalanuvchiga yaxshigina foyda olib kelish mumkin. Spekulyativ harakatlar natijasida kriptovalyuta narxining ko’tarilishi vaqti-vaqti bilan kuzatiladi2.

Kriptovalyutalar taqsimlangan ommaviy daftarda-blokcheynda qayta ishlanadi, bu yerda barcha operatsiyalarning yozuvlari saqlanadi, valyuta egalari tomonidan yangilanadi.

Bitcoin 2009- yildan beri mavjud, ammo moliyaviy jihatdan kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasini qo’llash hali ham boshlang’ich bosqichida; Kelajakda ularning jadal rivojlanishi kutilmoqda. Kelajakda kriptovalyutalardan aksiyalar,

1 https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/electron-money-finlit/
2 https://oqila.uz/kriptovalyuta-nima-va-nima-uchun-kerak

obligatsiyalar va boshqa moliyaviy aktivlar bilan savdo operatsiyalarida foydalanish mumkin3.

Bitcoin dastlab kundalik tranzaktsiyalar vositasi sifatida yaratilgan bo’lib, sizga bir chashka qahvadan tortib kompyutergacha yoki hatto ko’chmas mulk kabi qimmatbaho narsalarni sotib olish imkonini beradi. Bu rejalar hali to’liq amalga oshirilmagan. Kriptovalyutalarni qabul qiluvchi muassasalar sonining ko’payishiga qaramay, kriptovalyutalardan foydalangan holda yirik operatsiyalar juda kam uchraydi. Biroq, kripto valyutasi elektron tijorat saytlarida turli xil mahsulotlarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin4.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy abstraksiya, kuzatish, qiyoslash, dispersion tahlil usuliga asoslangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu maqola nashr etilishidan oldin, blockchain texnologiyasining paydo bo’lishi va amaliy amalga oshirilishiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan bir qator tadqiqotlar o’tkazildi. 1982 yilda D. Chaum ko’r-ko’rona imzo algoritmini taklif qildi va raqamli pul tushunchasini kiritdi . S. Xaber va S. Stormnett 1991 yilda vaqt belgilari asosida qurilgan hujjatlarning o’zgarmasligini tasdiqlash tizimining nazariy tavsifini taqdim etdi.

Aqlli shartnomalar g’oyasi N. Sabo tomonidan 1996 yilda taklif qilingan N. Sabo, shuningdek, 1998 yilda 2005 yilda nashr etilgan bit-oltin raqamli pul uchun protokol taklif qildi; u bit zanjirini hisoblash va POW konsensus mexanizmidan foydalanishga asoslangan edi. Ammo tizim amalda qo’llanilmadi va Sibilning hujumlariga duchor bo’ldi. Aqlli shartnomalar asosida ishlaydigan birinchi amalga oshirilgan blockchain 2013 yilda V. Buterin tomonidan yaratilgan Ethereum edi.

3 https://oqila.uz/kriptovalyuta-nima-va-nima-uchun-kerak
4 https://oqila.uz/kriptovalyuta-nima-va-nima-uchun-kerak

Respublikamizda bu masalalari bo`yicha tadqiqot ishlari olib borishgan olimlaridan S.S.G`ulomov, I.S.Abdullayev, R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva va boshqalar raqamli iqtisodiyot va blokchen texnologiyalari bo`yicha tizimli ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Materiallar va usullar

Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmat ko‘rsatuvchilar provayderlari (bundan buyon matnda xizmatlar provayderlari deb yuritiladi) — jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan ularning nomidan kripto-aktivlarni sotib olish, sotish, ayirboshlash, saqlash, chiqarish, joylashtirish va boshqarish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatuvchi O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar.

XIZMAT KO‘RSATUVCHILAR TURLARI:

KRIPTO-BIRJA - kripto-aktivlarni sotib olish, sotish va (yoki) ayirboshlash uchun elektron platformani taqdim etuvchi tashkilot;

MAYNING-PUL - mayning jarayonini ta’minlash maqsadida hisoblash quvvatlarini birlashtiruvchi elektron platformani taqdim etuvchi tashkilot;

KRIPTO-DEPOZITARIY - kripto-aktivlarni chiqarish, dastlabki joylashtirish va saqlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha elektron platforma va (yoki) texnik hamda dasturiy vositalar majmuasini taqdim etuvchi tashkilot;

KRIPTO-DO‘KON — kripto-aktivlarni sotib olish va (yoki) sotish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha elektron platforma va (yoki) texnik hamda dasturiy vositalar majmuasini taqdim etuvchi tashkilot.

OXIRGI BENEFITSIAR MULKDOR — xizmatlar provayderini bevosita yoki bilvosita ta’sis etuvchi yoxud uning ustav fondidagi (kapitalidagi) ulushlariga (aksiyalariga) bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yoxud ushbu shaxsga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yoxud uni nazorat qiluvchi shaxs.

Kripto-aktivlarni sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun kripto-birja yoki kripto-do‘kon xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Kripto-aktivlarni sotib olish yoki sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

- kripto-birja yoki kripto-do‘kon bilan shartnoma tuzish;

- shaxsning identifikatsiyasi;

- Kripto-birjada kripto-aktivlar savdosini amalga oshirish qoidalari (Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 15-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3379) va Kripto-do‘kon faoliyatini amalga oshirish qoidalarida (Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-oktyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3395) belgilangan boshqa talablarni bajarish.

Xulosa va takliflar: Hozirgi kunda fiat valyutalar orqali global va ichki to‘lovlarni amalga oshirish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘p vaqt talab qiladi. Operatsiyalarni tekshirish uchun ko‘plab vositachilar mavjud. Bu holatda butun jarayon ba’zi ma’lum xatolarga yo‘l qo‘yishi va ma’lum miqdorda mablag‘ talab qilishigap. Ushbu muammolar banklar va boshqa shunga o‘xshash moliyaviy muassasalarda pul operatsiyalarini markazlashtirish tufayli yuzaga keladi va ular ushbu tranzaksiyalar uchun javobgardirlar. Biroq, aksariyat xalqaro moliyaviy tashkilotlar ta’kidlashicha, blokcheyn texnologiyasida ishlayotgan kripto-aktivlar ushbu murakkabliklarni markazlashgan davlatizimdan chiqarishning ishonchli usuli hisoblanadi. Qayd qilingan tengdosh (shaxsdan shaxsga) tarmog‘ida global va boshqa to‘lovlar tezroq, ishonchli, o‘zgarmas va xavfsizroq hisoblanadi. Ayni paytda allaqachon amalga oshirilgan pul o‘tkazmalari xizmatlari uchun ushbu texnologiyadan foydalanayotgan "AbravaBitspark" kabi bir qancha taniqli moliyaviy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kriptovalyutalar mamlakatimiz iqtisoidiyotti va qonunchiligidagi yangi voqeadir. Shuning uchun kriptovalyutalar muomalasi rivojlanmagan. Kripto-aktivlarning jahon moliya bozori kelajagi ekanligini inobatga olib, ushbu yo’nalishda yetuk kadrlar tayorlashga yo’naltirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.N. Raximov.Ekonometrikaga kirish. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. –T.: «Iqtisodiyot», 2023, 388 bet.

2. Raximov Abdulaxad Nematovich. Econometric analysis of production by german method. May.31.2022. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *3*, 153–157. Retrieved from http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/47

3. Blokcheyn texnologiyasining tarkibi va o‘zaro ma’lumotlar almashunuvi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “Oliy ta‘limni raqamlashtirish muhitida innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar-2024” Jizzax, 14-15.03.2024. http://jurnal.jizpi.uz/index.php/JOURNAL/article/view/282

4. https://oqila.uz/kriptovalyuta-nima-va-nima-uchun-kerak/ Kriptovalyuta nima va nima uchun kerak?

5. https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/electron-money-finlit/ Elektron pullar o‘zi nima?